**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**
**TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI**
**BUYRUQ**

Toshkent, sh. «28» 09 2021 y. № 434

**2022 yilda Oliy ta'limdan**
**Kegingi ta'lim institutiga**
**qabul qilish to'g'risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomilashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 22 maydagi 304-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2021 yil 21 sentyabrdagi 02-20/5347 – sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni Saqlash vazirligining 2021 yil 27 sentyabrdagi 08-09/13003– sonli xatiga binoan 2022 yil uchun stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc) uchun kvotalar ta'lim va ilmiy tashkilotlar uchun ixtisosliklar kesimida tasdiqlangan taqsimoti ijrosini ta'minlash maqsadida:

**B U Y U R A M A N**

**I. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, professor S.S. Gulyamovga:**

**1.1.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomilashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 - yil 22 - maydagi 304-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2021 - yil 21 - sentyabrdagi 02-20/5347 – sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni Saqlash vazirligining 2021 - yil 27 - sentyabrdagi 08-09/13003– sonli xatiga binoan 2022 - yil uchun stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc) uchun kvotalar ta'lim va ilmiy tashkilotlar uchun ixtisosliklar kesimida tasdiqlangan taqsimoti ijro uchun qabul qilinsin.

**1.2** Stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga qabulni 2022 - yil uchun tasdiqlangan reja 1 - ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**1.3.** Tanlovda ishtirok etuvchilar xujjatlari joriy yilning 15 - sentyabrdan 15 - oktyabrgacha qabul qilinsin va shu bilan birga talabgorlar tomonidan shaxsiy xujjatlari onlayn phd.mininnovation.uz - sayti orqali yuborilishi ta'minlansin.

**1.4.** Stayor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga kirish imtixonlari joriy yilning 1- noyabrdan 25 - noyabrgacha o'tkazilsin.

**1.5.** Kirish imtihonlari va suhbat jarayonlarini video kuzatuv ostida (onlayn translyatsiya) o‘tkazish choralarini ko‘rsin (onlayn translyatsiya bo‘yicha vebsayt

havolalarini imtixon boshlanishidan 1 hafta oldin institut saytida e'lon qilishi) va SSVga rasmiy xat yuborish tashkil etilsin.

**1.6.** Stayor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga qabuli 2022 - yil qabuli bo‘yicha o'quv jarayonini 2022 - yilning 1 - yanvardan boshlansin.

**II. Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i dotsent Sh.R. Abzalovaga:**

**2.1.** Tanlovda ishtirok etuvchilar xujjatlari joriy yilning 15 - sentyabrdan 15 - oktyabrgacha qabul qilinsin va shu bilan birga talabgorlar tomonidan shaxsiy xujjatlari onlayn phd.mininnovation.uz - sayti orqali yuborilishi ta'minlansin.

**2.2.** Stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga kirish imtixonlari joriy yilning 1 - noyabrdan 25 - noyabrgacha o'tkazilsin.

**2.3.** Kirish imtihonlari va suhbat jarayonlarini video kuzatuv ostida (onlayn translyatsiya) o‘tkazish choralarini ko‘rsin (onlayn translyatsiya bo‘yicha vebsayt havolalarini imtixon boshlanishidan 1 hafta oldin institut saytida e’lon qilishi) va SSVga rasmiy xat yuborish tashkil etilsin.

Ushbu buyruk ijrosi nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, professor S.S. Gulyamov zimmasiga yuklatilsin.

**Rektor** **B.T. Daminov**

Asliga to'g'ri

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI
BUYRUQLAR UCHUN

Kiritildi:

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar**
**va ilmiy - pedagoglarni**
**tayyorlash bo‘lim boshlig‘i ,dotsent** **Sh.R. Abzalova**

Kelishildi:

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar**
**bo‘yicha prorektor, professor** **S.S. Gulyamov**

**Yurist** **S.V. Goryunova**